

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.2019. Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**BURANOVA MADINA UKTAMOVNA**

**TIBBIYOT OLIY O‘QUV YURTLARIDA TALABALARGA O‘QISHNI  
O‘RGATISHDA NOAN‘ANAVIY USULLARNING  
JORIY QILINISHI (ingliz tili materialida)**

**13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Buranova Madina Uktamovna**

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarda talabalarga o'qishni o'rgatishda noan'anaviy usullarning joriy qilinishi (ingliz tili materialida)..... 3

**Буранова Мадина Уктамовна**

Внедрение нетрадиционных методов чтения при обучении студентов медицинских вузов (на материале английского языка) ..... 25

**Buranova Madina Uktamovna**

Implementation of non-traditional methods of reading in teaching students of medical institutions (based on material of English language) ..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 53

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.2019. Fil/Ped.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**BURANOVA MADINA UKTAMOVNA**

**TIBBIYOT OLIY O‘QUV YURTLARIDA TALABALARGA O‘QISHNI  
O‘RGATISHDA NOAN‘ANAVIY USULLARNING  
JORIY QILINISHI (ingliz tili materialida)**

**13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand - 2023**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PHD/Ped.2236 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdchi.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Tuxtasinov Iloxjon Madaminovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Lutfullayev Maxmud Xasanovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Axmedova Laylo Tolibjonovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Etakchi tashkilot:**

**Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03.30.2019.Fil/Ped.83.01 raqamli ilmiy kengashning «3» iyul 2023-yil soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 2382937; faks: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchi.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (61425 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «20» iyun kuni tarqatildi.  
(2023-yil «19» iyun dagi № 79 raqamli reestr bayonnomasi)



**D.A.Kiselev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi v.b, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**G'.Q.Mirsanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Sh.S.Safarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon hamjamiyatida kuzatilayotgan globallashuv sharoitida davlatlar o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy aloqalar demokratik jamiyat nuqtai nazaridan ingliz tilini kasbga yo'naltirgan holda o'qitish va o'qituvchilarning professional kompetensiyasini oshirish zaruriyatini yanada kuchaytirmoqda. Kasbga yo'naltirilgan adabiyotlarni asl manbadan o'qiy oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zamon talabiga aylanmoqda. Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Yaponiya, Rossiya kabi mamlakatlarda turli soha mutaxassislarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish, kasbiy faoliyat sohasida chet tilida o'qish malakalarini o'rgatish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, tor ixtisosliklar (English for specific purposes) bo'yicha mutaxassislarga ingliz tilini o'rgatish, ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish (Teaching English as a foreign language), strategiya asosida o'qitishga (Strategy based instruction) qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqdaki, bu tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalariga chet tillarini o'rgatish usullari va strategiyalarini takomillashtirishga bo'lgan intilishning yuqoriligidan dalolat beradi.

Jahon amaliyotida mutaxassislarning kasbiy mahorati, professional sohadagi ta'lim tizimi, til bilish, xususan, chet tilini bilish ko'nikmalarini baholash masalalari tadqiqiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Zamonaviy jamiyatning texnik modernizatsiyasi ommaviy axborot vositalari materiallarini o'qishga o'rgatishning yangicha yondashuvlariga e'tiborni jalb qilish maqsadida o'zga tildagi matnni o'qishga o'rgatish yuzasidan uslubiy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, mazkur ixtisoslik bo'yicha bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda yuqori kompetensiyani taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi bilan rivojlangan davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanishi, globallashuv jarayonlari ko'p jihatdan ingliz tilini xalqaro til sifatida o'rganishning tutgan o'rnini belgilab berdi. Zamonaviy metodika chet tilini o'qitishning ilgari taklif qilingan, ko'pchilikka tanish uslub va yondashuvlarini qayta ko'zdan kechirib, innovatsion o'qitish strategiyalariga yuzlanmoqda. Zamonaviy jamiyat tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga karatilgan aniq ko'nikma va qobiliyatlarga ega, sifatli o'qitilgan mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda. "Shu asosda yosh avlodimizning grajdanlik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, uni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda"<sup>1</sup>. Shu munosabat bilan o'quv jarayoniga chet tilini o'qitishning noan'anaviy usullarini joriy etish, ayniqsa tibbiyot oliy o'quv yurtlari mutaxassislarni o'qish ko'nikmasini egallashga o'rgatish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Mirziyoev Sh.M. Maqsad sari intilb yashang, o'z kuchingizni ayamang. Prezident Mirziyoev Sh.M.ning yoshlar kuni mungosabati bilan bayram tabrigi, 30.06. 2018.- 1-3-b..

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmonlarida, 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son Qarorlarida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son qarorida, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi<sup>2</sup>.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirildi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish, o‘qishga o‘rgatishning noan’anaviy usullaridan foydalanish, ta’lim jarayonida o‘qish ko‘nikmasiga o‘rgatishning psixologik jihatlari, nutq faoliyatining bir turi sifatida o‘qish bosqichlarini tahlil qilish B.S. Blum, M.F. Greyvs, J.R.Schmidt, H.D.Braun, D.Nunan, J.S.Shamm, S.Ye. Snou va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan<sup>3</sup>.

---

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Farmoni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. Elektron resurs: <https://lex.uz/ru/docs/4312781>; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yangi davrida ta’lim va tarbiya sohalarini, fanni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son Farmoni. Elektron resurs: <https://lex.uz/ru/docs/5086015>; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi “Ta’lim muassasalarida chet tillarni o‘qitish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 610-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 32(792)-son, 2017.–S.167-169.; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni rivojlantirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5117-son Farmoni. Elektron resurs: <https://lex.uz/ru/docs/5426740>; O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son. Elektron resurs: <https://gazeta.uz/ru/2020/09/24/education>.

<sup>3</sup>Graves M.F. Teaching reading in the 21st century. New York: Scholastic and Pearson Education, 2007. -C.68-79.; Schmidt J.R., Rozendal M.S. Reading instruction in the inclusion classroom. New York: May-June Vol. 23. No.3 (130-140) 2010. -C.46-63.; Brown H. D. Language assessment principles and classroom practice. New York: Pearson Education, Inc, 2007.- 357c.; Nunan D. Practical English language teaching. New York: The McGraw-Hill, 2003. -347 p.; Schumm J.S. Reading assessment and instruction for all learners.- New York: The Guilford Press, 2006.-C.26-33.; Snow C. E. Reading for understanding: Toward program in reading comprehension. Arlington. RAND, 2016. -C.43-60.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, til ko‘nikmalarini o‘rgatish metodikasi, innovatsiyalar, chet tillarini o‘qitishni tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari S.P. Sinyavskaya, D.S. Mamonkina, O.Ya. Suleymanova, I.A. Zimney, N.D. Galskova, A.A. Mirolyubov, A.V. Konisheva, A.O. Stebletsova va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida ochib berilgan<sup>4</sup>.

O‘zbekistonlik olimlardan J.J. Jalolov, L.T. Axmedova, O.V. Kon, G.T. Maxkamova, N.X. Avliyoqulov, F.M. Rashidov va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlari xorijiy tillarni o‘qitish usullariga bag‘ishlangan. Ingliz tilini o‘rgatish metodikasi masalalari I.M. To‘xtasinov, B.G. Qulmatov, I.T. Aliyev, F.S. Abdullayeva, F.Sh. Alimov kabi tadqiqotchilarning ishlarida ko‘rib chiqilgan<sup>5</sup>.

Taniqli tilshunos olimlardan tashqari, Toshkent moliya instituti talabalarining o‘quv-ma‘rifiy faoliyatini tashkil etish imkonini beruvchi topshiriqlarning murakkabligiga ko‘ra o‘qishni darajalash masalalarini ko‘rib chiqqan Sh.M. Mamadayupova, o‘zlarining “Nofilologik OTM talabalariga chet tilida kasbiy yo‘naltirilgan muloqotni o‘rgatish” nomli ilmiy maqolasida o‘quv materialini tematik tashkil etish orqali nofilologik oliy o‘quv yurtlarida aslyatdagi materiallarni o‘qishni kommunikativ yo‘naltirilgan holda o‘rgatish modelini ishlab chiqqan N.T. Murodova va S.A. Erdanovalarning ishlarini alohida sanab o‘tish joiz<sup>6</sup>.

---

<sup>4</sup> Синявская С.П. Использование когнитивных методов терминологического исследования при обучении иностранным языкам в высшем учебном заведении. Психолого-педагогические проблемы Безопасность Человека и общества.- №1 (42), 2019.- С. 27-29.; Мамонкина Д. С. Английский язык – основа профессионального развития врача. Устойчивое развитие науки и образования = Устойчивое развитие науки и образования. № 1, стр. 2019.- С.188-193.; Сулейманова О. Я., Садыкова А. А., Сагинтаева С. Х. Интегрированный урок иностранного языка как средство междисциплинарного взаимодействия в медицинском вузе. Вестник Казахского национального медицинского университета. - № 4, 2016.- С. 354-356.; Зимняя И.А. Ключевые компонентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов.–Москва,2004.–С.28.; Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. – Москва, 2006.- С.81.; Миролубов А.А. Методика обучения иностранным языкам. Традиции и современность.- Москва,2010.– С.464.; Конышева А.В. Современные методы обучения английскому языку: учебник / А.В. Конышева. – 2-е изд., стереотипное. - Ми.: Тетра Системс, 2004. – 176 с.; Стеблецова А. О. Английский язык в профессиональной подготовке студента-медика: краткий обзор форм внеаудиторной работы / А. О. Стеблецова, Д. В. Рогожина // In Situ. 2015.- № 2.- С. 22-25.

<sup>5</sup>Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi: chet tillar oily o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – Toshkent. O‘qituvchi, 2012 – B.432.; Axmedova L.T. Kon O.V. Методика преподавания русского языка. Ташкент, Фан ва технология, 2013.– 240.; Махкамова Г.Т. Идея прогрессивизма в обучении языку специальности: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Toshkent, 2009.–С.150.; Авлиякулов Н.Х. Педагогическая технология.- Ташкент: Издательство "Алокачи", 2009. -148с.; Rashidova F.M. CEFR asosida chet tillarni o‘rganish, o‘qitish va baholashda kasb mahorati. – Toshkent, 2016.–B.70-71.; Тухтасинов И. М. Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.– Дис. д-ра пед. наук.(DSc) Тошкент, 2018.–С.203.; Kulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitishda CEFR mezonlaridan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirish. Avtoref. ped. fanlari bo‘yicha falsafa doktori. Toshkent, 2018; Aliyev I.T. Pedagogning kasbiy kompetentligi // Uzlusiz ta‘lim tizimida o‘qituvchilarni kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari: Resp. ilmiy-amaliy anjumani materiallari.–Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013. – 444 б. – Б. 55.; Abdullayeva F.S. Yuridik terminlarni o‘qitishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish (ingliz tili misolida).: Avtoref. ped. fanlari bo‘yicha falsafa doktori. Toshkent, 2018. – 49 б.; Alimov F.Sh., Ingliz tilida yozuv kompetentsiyasini shakllantirish (nofilologik fakultetlar misolida) Avtoref. ... kand. ped. nauk. – T., 2018.

<sup>6</sup> Mamadayupova Sh.M. Oliy o‘quv yurtida o‘qish talabalarining mustaqil faoliyat turi sifatida.- Toshkent, 2017.-1-3-betlar; Muradova N. T., Erdanova S. A. Chet tilida kasbiy yo‘naltirilgan muloqotni nolisoiy oliy o‘quv yurtlari talabalariga o‘rgatish / Yosh tadqiqotchi.- Toshkent, 2013.- 13-son.- 822-824 betlar.

Xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjudligiga qaramasdan, O‘zbekistondagi tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida noan’anaviy o‘qitish usullarini qo‘llash orqali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish masalasi haligacha yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ingliz tilini o‘qitish metodikasi va pedagogika sohasi bo‘yicha “Chet tilini o‘qitishning lingvodidaktikasi va innovatsion usullari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy yo‘nalishlari bilan bog‘liq.

**Tadqiqotning maqsadi** tibbiyot oliy o‘quv yurti talabalari uchun kasbiy yo‘naltirilgan ingliz tilidagi materialni o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishning noan’anaviy pedagogik texnologiyalari va usullarini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tibbiyot yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida professional chet tilini o‘qitishning bugungi holatini talabalar ehtiyojlaridan kelib chiqib tahlil qilish;

tibbiy jurnallar materiallari asosida tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘qitish mazmunini tanlash va asliyatdagi adabiyotlarni o‘qishning asosiy ko‘nikmalarini shakllantirishning uslubiy, didaktik va lingvistik jihatlarini ko‘rib chiqish;

o‘zga tilda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida o‘qishga o‘rgatishda Ilya Frank metodlari, «Keys» hamda «Labirint», «Piramida» va «Refleksiya» innovatsion mualliflik texnologiyalarini muayyan yo‘nalishdagi asl nusxa materiallar asosida amalga oshirishni asoslash;

tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida ta’lim sifatini oshirish yo‘sini sifatida o‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish metodlari va pedagogik texnologiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning didaktik shartlarini aniqlash va eksperimental sinovdan o‘tkazish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasidagi tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining talabalariga kasbga yo‘naltirilgan materiallarni o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** zamonaviy innovatsiyalardan foydalangan holda tibbiyot oliy o‘quv yurtlarida original materiallarni o‘qish malakasiga o‘rgatishda kasbiy yo‘naltirilganlikning mazmuni, shakllari va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyaning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda nazariy (tadqiqot mavzusi bo‘yicha pedagogik, uslubiy va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish) hamda empirik tadqiqot usullaridan (umumlashtirish, taqqoslash, kuzatish, so‘rovnoma, test, statistik tahlil) foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalariga o‘qish malakasini o‘rgatish metodikasi o‘zga tildagi matnni o‘qishga o‘rgatish yuzasidan uslubiy yondashuvlar, matn oldi va matndan keyingi topshiriqlarni bajarish, ma’lumotlarni tahlil va sintez qilishga qaratilgan mashq va topshiriqlar innovatsion o‘qitish strategiyalariga ko‘ra takomillashtirilgan;

tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining o'qish ko'nikmalari asliyatdagi matnda yuz berayotgan voqealarning mohiyatini mantiqiy tiklash, leksik birliklarni tahlil qilib ulardan nutqiy muloqotda o'rinli foydalanish uch bosqichli «oddiy», «biroz murakkab», «murakkab» tamoillari orqali rivojlantirish asoslangan;

talabalarni tibbiy yo'nalishdagi materiallarni o'qishga o'rgatishda autentik materiallar asosida intensiv o'qish, tanqidiy idrok etish, mantiq va tafakkurni rivojlantirish, o'rganilayotgan mavzuning o'ziga xos terminologiyasini tushinishga qaratilgan mashqlar noan'anaviy usullar yo'rdamida rivojlantirilgan;

tibbiyot sohasidagi maqolalarni lug'ati bilan ishlash orqali o'qish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida ishlab chiqilgan «Labirint», «Piramida», «Refleksiya» yangi pedagogik texnologiyalari ta'limning kommunikativ yondashuvga ko'ra holda takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish kontekstida innovatsion texnologiyalarning zamonaviy usullariga asoslangan ta'lim vositalari takomillashtirilgan;

tibbiyot oliy o'quv yurtlarida professional ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan Ilya Frank, «Keys» metodlari asosidagi o'quv materiallari ishlab chiqilib, o'quv jarayoniga joriy etilgan;

«Labirint», «Piramida» va «Refleksiya» kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va kasbiy yo'nalgan maqolalarni o'qishni o'rgatish amaliyotiga joriy etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiya ishida zamonaviy metodlar, pedagogik texnologiyalar va ishonchli manbalardan olingan nazariy ma'lumotlardan foydalanilganligi, taqdim etilgan tadqiqot natijalarining asosliligi, statistik tahlil usulining samaradorligi, xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, shuningdek, olingan natijalarning samaradorligi oliy o'quv yurtlari ma'muriyati tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kasbiy yo'naltirilgan matnlarni o'qish ko'nikmalarini o'rgatishning nazariy asoslari va o'qitishning noan'anaviy usullarining tahlili, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri samaradorligini aniqlash maqsadida o'rganilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati** shundan iboratki, o'quv materiallaridan tibbiyot oliy o'quv yurtlari uchun «Ingliz tili» fanidan amaliy ishlanmalarni tuzishda qo'shimcha manba sifatida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarini o'qishga o'rgatishning noan'anaviy usullarini amalga oshirishga qaratilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

muloqotga kirishuvchanlik ko'nikmalarini shakllantirish, kasbga yo'naltirilgan terminologiyani innovatsion strategiyalar yo'rdamida tushinishga doir nazariy va amaliy xulosalaridan «Samarqand sadosi» radiosi eshittirishlarini tayyo'rlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2022 yil 15 oktabrdagi 01-12/392-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada innovatsion yondashuv bo'yicha barcha taklif va tavsiyalar ommalashtirilgan.

talabalarining ijodiy tafakkurini faollashtirish, kirishimlilik, kreativlik, o'zini namoyon etish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalardan 561624-YERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP «O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish» amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022 yil 7 oktabrdagi 2812/30.02.01-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalariga o'qishni o'rgatish metodikasi takomillashtirilgan.

talabalarining umumiy intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan autentik materiallaridan I-204-4-5 «Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish» amaliy loyihasida foydalanilgan—(Samarqand davlat chet tillar institutining 2022 yil 7 oktabrdagi 2811/30.02.01-raqamli ma'lumotnomasi). Natijada tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarini kasbga yo'naltirilgan asl manba materiallarini talqin qilishga o'rgatish sifatini oshirishga qaratilgan metodik yondashuv takomillashtirilgan.

matnning asosiy faktlarini talqin qilish, mahsus matnni to'liq idrok etish, olingan ma'lumotni tushunish, sharhlash va tushuntirish, matnning barcha tafsilotlarini, ularga bog'liq bo'lgan asosiy va kichik faktlarni aniqlashga doir taklif va tavsiyalardan Warwick universitetida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlarida foydalanilgan (Warwick universiteti 2022 yil 4 avgustdagi ma'lumotnomasi). Natijada talabalarining kognitiv ko'nikmalarini shakllantirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy maqola, shundan 6 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda (4 ta maqola respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 124 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**»da tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, ishning maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot mavzusining ishonchliligi, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga tatbiq etilganligi asoslangan, natijalarning nashr etilganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumot berilgan.

«**Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qishni o'rgatishning zamonaviy jihatlari**» deb nomlangan birinchi bobda tibbiyot oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, ingliz tilida o'qishni

shakllantirishning maqsad va vazifalarini aniqlash va belgilash masalasi, tibbiyot oliy o'quv yurtlarida kasbga yo'naltirilgan matnlarni o'qishga o'rgatishning mazmunini tanlashning didaktik va metodologik jihatlarini zamonaviy talablar nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Zamonaviy jamiyat globallashtirish, immigratsiya, ishlab chiqarishni axborotlashtirish, iqtisodiyotdagi raqobatning kuchayishi va nihoyat, Covid-19 pandemiyasi kabi muayyan omillar tufayli doimiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Oxirgi pandemiya dunyoning barcha mamlakatlari va hamma sohalar, jumladan, oliy ta'lim strukturasi uchun ham ulkan sinovga bo'ldi. Pandemiya vaziyatni o'zgartirdi, bu esa ta'lim berish usullari va vositalarini moslashtirish, o'zgartirish va noan'anaviy yondashuvlarni qidirib topishga olib keldi. Ayni paytda, «Chet tili» fanining mazmuni o'zgarmadi, oliy o'quv yurtlarining me'yoriy hujjatlari va o'qitish hamda baholash bo'yicha Yevropa ta'lim standartlariga muvofiq o'zgarishsiz qoldi.

Shu bois ushbu tadqiqotning eng muhim vazifalaridan biri tibbiyot o'quv yurtlari misolida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida til o'qitishning tuzilishi va mazmunini aniqlash hisoblanadi.

O'zbekistonda oliy ta'limni modernizatsiya qilish strategiyasi xorijiy tillarning funksiyasini bilimlar standartining asosiy mezonlaridan biri sifatida belgilaydi. Shu sababli, ingliz tilidan professional va individual maqsadlarda foydalanishga bo'lgan ehtiyoj keskin oshdi.

Tadqiqotimizda respublikamiz tibbiyot oliy o'quv yurtlarida chet tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni rejalashtirganmiz, ya'ni muayyan maqsadlar uchun ingliz tilini o'qitish konsepsiyasi (English for specific purposes) ko'rib chiqiladi. Biz tibbiyot yo'nalishidagi matnlar o'zining shakli, tuzilishi va mazmuni jihatidan boshqa sohalarining matnlaridan farq qiladi, deb hisoblaymiz.

Z.I.Klichnikova chet tilidagi matnlarni tushunishning yetti darajasini belgilaydi. Birinchi va ikkinchi darajalar matnni tushunishni tasdiqlovchi alohida so'zlarni tushunish bilan bog'liq. Bu darajada bir nechta ma'noli so'zlarni, omonimlarni, omograflarni, antonimlarni va sinonimlarni o'zlashtirish qiyin. Iboralarni tushunishning ikkinchi darajasi talabalar sintaksis yoki morfologiyadagi murakkabliklarga duch kelganda yuzaga keladi. Butun boshli matnni emas, balki uning detallarini ham anglash to'rtinchi va beshinchi bosqichlar bo'lib, bu bosqichlar axborotning xiliga qarab o'qish turlari bilan bog'liq. Oltinchisi – ma'noli so'zlarni tushunish, yettinchisi esa, barcha darajadagi axborotlarni tushunishni anglatadi<sup>7</sup>.

Muallif dastlabki besh darajani matnning «ma'no doirasi»ga kiritadi. Oxirgi ikkitasi matn mazmunining tuzilishini tushunishni xarakterlaydi. Tadqiqotchilar matndagi «ma'no doirasi» va «mazmun doirasi» farqini turlicha belgilaydilar.

---

<sup>7</sup> Klychnikova Z. I. Psychological features of teaching reading in a foreign language: a manual for a teacher / Z. I. Klychnikova. - M.: Enlightenment, 2003. - 207p.;

Shuningdek, tushunishning teranlik, aniqlik va qo'llash sohasi kabi jihatlari ajralib turadigan sifat darajasi xususiyatlariga e'tibor berish zarur bo'ladi<sup>8</sup>.

Ta'kidlash joizki, "tilni bilishning har qanday bosqichida matn tili va mavzusi bilim va tasavvurlarga qanchalik mos kelishidan qat'i nazar, turli xil tushunish darajalari mavjud"ligi tufayli, yuqorida keltirilgan darajalar tadqiqotchilar tomonidan bir-birini almashtiradigan va tilni bilish darajasini tavsiflovchi tushunish bosqichlari deb hisoblanmaydi<sup>9</sup>.

Yuqoridagi tavsifni asoslay turib, shuni aytish kerakki, ta'lim maqsadini belgilash oliy o'quv yurti talabalarining o'qish ko'nikmalarining darajasiga bog'liq, chunki o'qilganni idrok etish ko'p jihatdan ma'lumot turiga va talabalarning psixologik xususiyatlariga bog'liq. B.S. Blum taksonomiyasining asosiga ko'ra, o'qilgan matnni idrok etish – bu faol jarayon bo'lib, talabalarning o'qilgan material bilan o'zaro faol ta'sirini ko'zda tutadigan tirishqoqlik faoliyatini ko'zda tutadi. Shu nuqtai nazardan, matnni tushunish talabalarning til ko'nikmalari va qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi. Asliyat materiallarini o'qiyotganda talabalar nafaqat matndagi ma'lumotlarni o'zlashtiradilar, balki olingan ma'lumotlarni o'z sohasi bo'yicha bo'lajak mutaxassislarning kompetensiyasini shakllantirishda qo'llaydilar.

Mazkur holatlarning to'g'ri talqini talabalarning til darajasiga bog'liq, ammo biz tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarini o'zlarining professional faoliyati davomida asl manbalardan maxsus materiallarni o'qiy olishlari va ingliz tilini o'rganish jarayonidagi interpretatsion xarakterdagi qiyinchiliklarni inobatga olgan holda kerakli ma'lumotlarni tushunish va topishni o'rganishlari kerak deb hisoblaymiz.

O'qitishning innovatsion usullari til mashqlarining qay biri asliga to'g'ri ekanligi haqida aniq tushuntirish bermaydi. Odatda so'z boyligini kengaytirish, grammatik strukturalarni tushunish va muloqot ko'nikmalarini yaxshilash maqsadida talabalar matn oldi va matndan keyingi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi.

Tibbiyotdagi eng yangi texnologiyalaridan xabardor zamonaviy tibbiyot mutaxassislari o'qish ko'nikmalarini shakllantirish ko'p jihatdan ilg'or xorijiy til ma'lumotlarini mobil idrok etishga bog'liq. Shunga ko'ra, asosiy masala spetsifik materialning asosiy g'oyasini to'liq anglagan holda, professional yo'naltirilgan o'qishni idrok etishga o'rgatish hisoblanadi.

Ingliz tilini o'rgatish jarayonida materialning professional ahamiyati, mantiqiyligi va bog'liqligi mezonlariga javob beradigan chet tilidagi asl manba matnidan foydalanish tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarining chet tilidan kommunikativ salohiyatini shakllantirishga yordam beradi. Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida xorijiy tilda o'qishni o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, asliyatdagi materiallardan foydalanish ingliz tilidagi matnlar bilan ishlashga

---

<sup>8</sup>Гиззатова Л.А., Плотникова Н.Ф. Обучение студентов-медиков профессионально ориентированному Английскому языку. Казанский лингвистический журнал.- № 2 (4), 2019.- С. 67-73.

<sup>9</sup> Баранцева И. В. Оптимизация процесса обучения студентов-социологов пониманию иноязычного текста: автореферат дис. канд. пед.наук: – Пятигорск, 2005. – 23 с.

majbur bo'lajak mutaxassislarning faoliyat sohasidan kelib chiqib, maxsus mavzularni o'rganishga qaratilgan.

**«Talabalarga ta'lim berishda maqolalarning o'zga tillardagi matnlarini o'qishning innovatsion usullaridan foydalanish»** deb nomlangan ikkinchi bobda Ilya Frank metodi vositasida «Labirint», «Piramida», «Refleksiya» innovatsion texnologiyalaridan foydalangan holda muammoli ta'lim va Keys usuli orqali mutaxassislik yo'nalishidagi matnlarni o'qishni o'rgatishda topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi.

O'qish ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy jamiyat ta'lim faoliyatining ancha murakkab jarayoni sanaladi. Jamiyat shakllanishining turli bosqichlarida o'qishga o'rgatish jarayoni va didaktik shartlar xilma-xil uslubiy yondashuvlar bilan ajralib turadi. Kasbiy yo'naltirilgan materiallarni o'qishni o'rgatishning an'anaviy usullaridan foydalanish zamonaviy o'qitish usullarida yetarlicha o'rganilmagan jihatdir. Shunga ko'ra, nostandart yondashuvlarni amalga oshirish bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda dolzarb hisoblanadi.

O'quv dasturlari va majmualari tahlili asosida chet tilini kasbiy yo'naltirilgan holda o'qitishga qo'yiladigan turli talablarni o'rganish natijasida shunday xulosaga keldikki, tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalariga chet tilini o'rgatishda (masalan, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Buxoro davlat tibbiyot instituti va Andijon davlat tibbiyot instituti talabalariga) guruhdagi o'zaro ta'sir va ijodiy faoliyatga e'tibor qaratish zarur, chunki kelajakda ular egallaydigan kasb kommunikativ ko'nikmalar va konkret o'ziga xos faoliyat malakasini talab qiladi.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida o'qishni o'rgatishning zamonaviy talablaridan kelib chiqib, o'qish malakasini rivojlantirishga qaratilgan quyidagi bosqichlardan iborat vazifalar tizimidan foydalanish zarur, deb hisoblaymiz: dastlabki bosqich (materiallarni o'qish, videomateriallarni ko'rish va muhokama qilish, taqdimotlar va slaydlar tayyorlash, yozma topshiriqlar), auditoriyada ishlash bosqichi (qo'yilgan muammoni yechish, muhokama qilish, tahlil qilish, baholash, matn, video va audio materiallardan foydalanish, xulosa va taqrizlar yozish), va nihoyat, darsdan keyingi bosqich (konferensiyalar, forumlardagi munozaralarda ishtirok etish, o'qituvchi bilan suhbat).

Noan'anaviy usullarga asoslangan o'qitishning muloqotga yo'nalganligi talabalarning nutqiy fikrlashga bo'lgan faolligini rag'batlantiradi. Shu munosabat bilan tibbiyot oliy o'quv yurtlari pediatriya bo'limining talabalarini uchun o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha topshiriqlar taqdim etildi. Mashg'ulotlar mavzularini hisobga olgan holda, noan'anaviy usullardan foydalanib, inglizcha jurnallarning aslyatdagi maqolalari asosida professional ingliz tilini o'rgatish uchun material ishlab chiqish mumkin.

Biz taklif etgan vazifalar tizimi 3 bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda o'qish bilan tanishtirish va talqin qilish uchun Ilya Frank usulidan foydalangan holda tibbiy jurnaldagi maqola matni bilan tanishish yuz beradi. Ikkinchi bosqichda talabalar ma'lumotlarni tahlil va sintez qilish, shuningdek, «Labirint», «Piramida», «Refleksiya» texnologiyalaridan foydalangan holda chet tilidagi kasbga yo'naltirilgan maqolaning yangi so'zlari bilan yaqindan tanishish bo'yicha


xorijiy til ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Uchinchi bosqichda o‘qish ko‘nikmasini keys usulida muammoli o‘rganish texnologiyasi qo‘llaniladi.

Biz Ilya Frank metodiga asoslanib, tibbiyot oliy o‘quv yurti o‘quv dasturidagi mavzu bo‘yicha tibbiy jurnallardagi maqolalar yuzasidan topshiriqlar ishlab chiqdik. O‘qish ko‘nikmasini rivojlantirish, matnning umumiy mazmuni va uning detallarini to‘liq va to‘g‘ri tushunishlari maqsadida tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining talabalariga tahlil va sintez uchun ingliz tilidagi maqolalarning aslyatdagi matnlari taklif etildi. Matn talqini uning kommunikativ vazifasini ochib beradi va chuqur o‘qish ko‘nikmalarining yuzaga chiqishiga olib keladi.

Sharhlab o‘qish usuli, ya’ni Ilya Frank metodi tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalariga matni lug‘atsiz tushunish imkonini beradiki, o‘z navbatida, bu ularning so‘z boyligini oshirishga, muloqotga kirishuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirishga mos keladigan grammatik tuzilmalarni egallashlariga xizmat qiladi. Ilya Frank metodi tadqiqotimizda kasbga yo‘naltirilgan asl manba matnlaridan foydalanishni ko‘zda tutadi.

«**Labirint**» texnologiyasi muloqotga yo‘nalganligi tufayli o‘qilgan so‘zlar bilan kelgusida ishlash va talabalar nutqini boyitishda ushbu so‘zlardan foydalanish, aslyatdagi matnda yuz berayotgan voqealarning mohiyatini mantiqiy tiklash orqali Ilya Frank uslubini to‘ldiradi.

Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining talabalariga «Labirint» texnologiyasidan foydalangan holda Ilya Frank metodi asosida tahlil qilingan «Reducing Antibiotic Resistance» mavzusidagi matn yuzasidan individual ish uchun topshiriqni bajarish taklif qilindi. Vazifaning maqsadi muammoni hal qilish va yakuniy xulosaga olib keladigan asosiy atamalarni yagona mantiqiy maxrajga keltirish hisoblanadi. Talabalar, vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li – muammo mohiyatini ochadigan to‘g‘ri tuzilgan tibbiy atamalardan iborat xalqa – so‘zlar labirintini tuzadilar.




**1-rasm. «Reducing Antibiotic Resistance» matni misolidagi «Labirint» texnologiyasi.**

Bu texnologiya butun matn mohiyatini to‘la ochib beruvchi asliyatdagi matnning kalit so‘zlarini mantiqiy xalqaga terish imkonini beradi. Labirint texnologiyasi avvalida talaba matnning barcha keyingi harakatlariga asos bo‘ladigan kalit so‘zni ko‘rsatadi. Labirintdan o‘tar ekan, talaba keyingi jumla yoki xatboshining mohiyatini ochib beradigan atamani aniqlaydi. Labirintdan chiqishda asliyatdagi materialning umumiy g‘oyasi aniqlashtiriladi.

Bunday yondashuv talabalarda nafaqat muayyan o‘qish texnikasi ko‘nikmalarini, balki ilgari yetarlicha baholanmagan, ihotalangan so‘z darajasida o‘qilgan kontekstni anglashni ham shakllantirish imkonini beradi.

«**Piramida**» texnologiyasining mohiyati so‘z va iboralarni qo‘llash chastotasi va talqin murakkabligi darajasiga ko‘ra saralashdan iborat. Tibbiyot oliy o‘quv yurtlarining talabalariga berilgan vazifani «Piramida» texnologiyasi yordamida bajarish topshirildi. Vazifa shundan iboratki, chet tilidagi maqolada ishlatilgan tibbiyotga oid ma‘nosi, qo‘llanilishi, va oddiydan to‘ qiyinligiga qadar har xil atamalar murakkablik darajasiga ko‘ra 3 ga ajratilishi kerak.



**2-rasm. (1-guruh) «Reducing Antibiotic Resistance» maqolasi asosida «Piramida» texnologiyasi (Antibiotiklarga qarshi chidamlilikni qisqartirish).**

Guruh/juftliklarda ham, individual shaklda ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ushbu pedagogik texnologiya o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi bilan bog‘liq bo‘lib, u orqali leksik birliklar “osondan murakkabgacha” tamoyili bo‘yicha qo‘llaniladi. Leksik birliklar piramida ko‘rinishida, 3 bosqichda tanlanadi: 1) oddiy; 2) biroz murakkab; 3) murakkab. Talabalar tibbiy atamalardan foydalanish chastotasi bo‘yicha yangi so‘zlarni tahlil qilib, ularni trening, o‘zlashtirish va nutqiy muloqot shakllarida foydalanish maqsadida idrok etishning murakkabligiga qarab piramida ko‘rinishida joylashtiradilar.

Eng ko‘p ishlatiladigan va murakkab so‘zlarni aniqlash uchun asliyat materiallarining tarkibiy tahlili kasbga yo‘naltirilgan terminologiyani o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga undaydi. Qolaversa, yuqorida qayd etilgan texnologiyalar ta‘limning kommunikativ yondashuviga asoslangan holda o‘qilgan materialni tanqidiy idrok etish, shuningdek, mantiq va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan.

Ilya Frank metodi va biz tomonimizdan kasbga yo'naltirilgan asl manba materiallari asosida ishlab chiqilgan «Labirint» va «Piramida» texnologiyalarining tizimli tatbiq etilishi nafaqat jumla, so'z va iboralarni talqin qilish samaradorligini ko'rsatadi, balki matnni yaxlit, shu jumladan o'rganilayotgan mavzuning o'ziga xos terminologiyasini o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ilya Frank metodi, «Labirint» va «Piramida» texnologiyalari matn bilan ishlashni tartibga soladi, tillararo o'zaro munosabatlar tamoyiliga ko'ra leksik birliklarni tanlash, ya'ni lotin leksik birliklarini grafik shaklda aniqlash imkonini beradi.

Ilya Frank metodi asosida biz ishlab chiqqan navbatdagi texnologiya «**Refleksiya**» deb nomlanadi. Texnologiyaning mohiyati original matnni nima sodir bo'layotganini tanqidiy tushunish, muayyan xarakterdagi muammolarni aniqlash va hal qilishni hisobga olgan holda mantiqiy harakatlar zanjirini qurish maqsadida sinchkovlik bilan o'qishdan iborat. Mazkur texnologiya, o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini aks ettirgani bois, birinchi navbatda, kommunikativ yondashuv orqali til ko'nikmalarini mashq qildirishga asoslanadi. Tibbiyot oliy o'quv yurtlari pediatriya bo'limining talabalariga berilgan vazifani «Refleksiya» texnologiyasi yordamida bajarish topshirildi. Talabalar o'qilgan matnni tahlil va sintez qilishlari joiz. Ushbu texnologiya o'tilgan materialni mustahkamlash uchun o'qishning matndan keyingi bosqichi sifatida amalga oshirilishi mumkin.

**1-topshiriq. «Berserk on tranquillizer» (Trankvilizatoridan aqlini yo'qotganlar) maqolasining original matni misolida «Refleksiya» texnologiyasidan foydalanish.**

#### **«Refleksiya» texnologiyasi**

<b>Refleksiya</b>	
<b>Maqola mavzusi (Headline)</b>	Berserk on tranquillizer
<b>Voqea joyi (Action place)</b>	at a hospital
<b>Matnning asosiy g'oyasi (Main points)</b>	A 30-year-old patient Just after the procedure has been completed, the man asked when it was going to start. When told it was over, the man went berserk, accused the doctors of lying and assaulted one of them.
<b>Muammoni aniqlash (to find out the problems)</b>	Tranquillizer can trigger bizarre behavior. A 30-year-old patient at a hospital attacked doctors after they have gave him diazepam, a common benzodiazepim tranquillizer .The man, who was suffering from stomach pains, was given the drug before the endoscope was threaded down his throat into his stomach
<b>Muammo yechimi (Solving problems)</b>	He calmed down only after a second endoscopy. The doctors note in <i>The Lancet</i> , that it is uncommon for a drug, given to a patient to prove harmful to the doctor
<b>Xulosa (Conclusion)</b>	To be very careful with tranquillizer as they can be harmful for certain unstable patients and treating doctors.

Mazkur noan'anaviy usul talabalarning fikrlash jarayonlarini «Refleksiya» texnologiyasi ko'magida ochib berish orqali ularning mustaqil faoliyatini ham aks ettiradi. Bu esa, o'z navbatida:

- 1) talabalarning ijodiy tafakkurini faollashtiradi;
- 2) yechimni ongli ravishda maqsadli izlashga hissa qo'shadi;
- 3) kirishimlilik, kreativlik, o'zini namoyon etish, bag'rikenglik, har bir talabaning o'zi tanlagan axborot va qabul qilingan qarorlar natijalari uchun mas'ulligini rivojlantiradi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib xulosa qilishimiz mumkinki, biz taklif qilgan tamoyillar tadqiqotda tahlil qilingan kasbga yo'naltirilgan asl manba materialini o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning usul va texnologiyalariga mos keladi.

«Keys» metodi – muammoli ta'limni o'z ichiga olgan va guruh muhokamasi va murakkab muammolarni hal qilish orqali analitik ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradigan o'ta moslashuvchan o'qitish usulidir. «Keys» metodi B.S.Blumning kognitiv ta'lim taksonomiyasining yuqori darajalarini ishlab chiqishga, ya'ni bilimlarni yodlashdan tahlil qilish, baholash va amaliyotda qo'llashga o'tishda yordam beradi.

Muammoli ta'lim usuli (Keys metodi) asl manbadan olingan real vaziyatlarga asoslanadi. Ushbu usul nafaqat aniq dalillarni ishlab chiqishga, balki talabalarning umumiy intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan. Muammoli holatlar turli shakllarda, bitta gap yoki savoldan tortib, matnli taqdimotgacha bo'lgan ko'rinishda taqdim etilishi mumkin. Shuning uchun dastlab oddiy matnlar bilan ishlash, shundan keyingina murakkabroq manbalarga o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Fikrimizcha, matn o'rganish manbai bo'lib, original matnlardan foydalanish talabalarning kognitiv funksiyalarini shakllantirishga olib keladi.

Tahlil qilingan manbalarga tayanadigan bo'lsak, keys usuliga asoslangan o'qishning quyidagi turlari mavjud:

- matnning asosiy faktlarini talqin qilish: bu tur asosiy voqealarni aniqlash uchun matnning asosiy strukturasi o'rganishni o'z ichiga oladi;
- o'qilgan matnni to'liq idrok etish: o'qishning bu turi olingan ma'lumotni tushunish, sharhlash va tushuntirish uchun matnning barcha tafsilotlarini, ularga bog'liq bo'lgan asosiy va kichik faktlarni aniqlashdan iborat.

Masalan, «**Prevention and Treatment of Cardiovascular Disease in Adolescents**» (Kattalarda yurak kasalliklarining oldini olish va davolash) maqolasidan olingan parcha asosidagi tibbiy keys.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, xulosa qilishimiz mumkinki, biz taklif qilayotgan o'qishni o'rgatishning zamonaviy usullari, xususan, Ilya Frank metodi, «Keys» metodi, shuningdek, «Piramida», «Labirint», «Refleksiya» innovatsion pedagogik texnologiyalari, shubhasiz, ma'lumotni bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholashga asoslangan B.S.Blum taksonomiyasiga mos keladi. Intensiv o'qishga o'rgatishning ushbu noan'anaviy usullari tibbiy yo'nalishdagi muloqot kompetensiyasi ko'nikmalarini shakllantiradi.

### Case study

**Tibbiy keys: 1) «Prevention and Treatment of Cardiovascular Disease in Adolescents»** bugungi kunda dunyoda eng ko‘p tarqalgan deya hisoblanadigan yurak kasalliklarining oldini olish va davolash haqidagi maqolani o‘qing. Yurak kasalliklarining oldini olish va davolashning maqolada keltirilgan dalillarga mos kelmaydigan boshqa yo‘sinlarini tahlil qilib ko‘ring.

The pathogenesis and progression of cardiovascular diseases are thought to be exacerbated by stress. Basic research indicates that the Transcendental Meditation technique produces acute and longitudinal reductions in sympathetic tone and stress reactivity. In adolescents at risk for hypertension, the technique has been found to reduce resting and ambulatory blood pressure, left ventricular mass, cardiovascular reactivity, and to improve school behavior. Research on adults with mild or moderate essential hypertension has reported decreased blood pressure and reduced use of anti-hypertensive medication. The technique has also been reported to decrease symptoms of angina pectoris and carotid atherosclerosis, to reduce cardiovascular risk factors, including alcohol and tobacco use, to markedly reduce medical care utilization for cardiovascular diseases, and to significantly decrease cardiovascular and all-cause morbidity and mortality. These findings have important implications for inclusion of the Transcendental Meditation program in efforts to prevent and treat cardiovascular diseases and their clinical consequences.

Transcendental Meditation and TM are trademarks registered in the US. Patent and Trademark Office, licensed to Maharishi Vedic Education Development Corporation and are used with permission.

### Keys topshirig‘i

*1) Matnni o‘qish va maqolaning asosiy nuqtalarini aniqlash*

